

MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI BOLALARI IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lif jarayonida tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirishda ART pedagogikasi vositasidan foydalanishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari, bunda tayyorlov guruhi bolasining shaxsiy sifatlari va bilim, ko'nima, malakasining oshib borishidagi o'ziga xos jihatlari, badiiy pedagogika texnologiyalaridan foydalanishda tarbiyachiga qo'yilgan talablar haqida ma'lumotlar berilgan, metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, ART pedagogikasi, ijodkorlik, tasavvur, tafakkur, idrok, xotira, muloqot, san'at, o'z-o'zini baholash, qobiliyat, etika, estetika, obrazli tafakkur, mahorat.

ПЕДАГОГИКО – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье даны сведения о педагогических и психологических возможностях использования средств арт-педагогики в развитии творчества детей подготовительной группы в процессе дошкольного образования, о личностных качествах и особенностях развития знаний, умений, навыков ребенка подготовительной группы, о требованиях, предъявляемых к воспитателю при использовании технологий художественной педагогики, даны методические рекомендации.

Ключевые слова: дошкольное образование, художественная педагогика, творчество, воображение, мышление, восприятие, память, общение, искусство, самооценка, способности, этика, эстетика, образное мышление, мастерство.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE MEANS OF ART PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF CHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. The article provides information on the pedagogical and psychological possibilities of using the means of art pedagogy in the development of the creativity of children of the preparatory group in the process of preschool education, on the personal qualities of the child of the preparatory group and specific aspects in the growth of knowledge, education, qualifications, requirements for the educator in the use of

Keywords: preschool education, art pedagogy, creativity, imagination, thinking, perception, memory, communication, art, self-assessment, ability, ethics, aesthetics, figurative thinking, skill.

ART pedagogikasi texnologiyalarini qo'llash asosida tayyorlov guruhi bolalarining ijodkorligini rivojlantirish masalasi hozirgi kunda dunyo ta'lif tizimida urf bo'lgan texnologiyalardan biri hisoblanib, undan sohalar bo'yicha alohida bilimlar berishga emas, balki integratsiyalashgan holda, shaxs rivojlanishini ta'minlovchi ta'lif tarbiya jarayonlari badiiy pedagogik yondashuvlarga asoslangan holda foydalaniladi. Maktabgacha ta'linda ART pedagogikasi texnologiyasidan foydalanib, ta'lif-tarbiya jarayonida tayyorlov guruhi bolalarini ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi. ART pedagogikasi vositalarini qo'llash natijasida tayyorlov guruhi bolalarida berilgan topshiriqlarni ijodiy jarayonda bajarishda go'zallikni ko'ra olish, undan ilhomlanish, zavqlanish asosida tarbiyachi bilan birgalikda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy

fikrlash, innovatsion fikrlash, o‘z yangiligini kiritish, ixtiro qilish kabi xususiyatlari shakllanadi. Badiiy pedagogik ta’lim – tarbiya berishda qo‘l mehnati va aqliy tasavvurga asoslangan ijod namunalirini yaratish ko‘nikmalari rivojlantirilishiga erishiladi. Bu esa, kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda, shaxsiy va jamiyatdagi yashash tarzini o‘z qo‘li va o‘z harakati bilan yanada mazmunli va chiroyli tashkil etishda yordam beradi.

Bugungi kunda ART pedagogikasi texnologiyasidan foydalanish dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. ART pedagogikasi texnologiyalarining kreativ yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyonи muntazam o‘rganib borishadi. Natijada ularning ehtiyojlarga asoslangan qiziqishlarini, ijodiy muhandislik fikrlash uslublarini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’milagan holda ularni san’atga yondashuvi orqali estetik va etik madaniyatini ham shakllantiradi.

ART pedagogikasi vositasidan foydalanish natijasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi. Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb hisoblasak, ART pedagogikasi orqali bolalar olgan bilimlarini amaliyot bilan bog‘liq tarzda mustahkamlab, o‘z qo‘llari bilan bajargan holda ko‘z o‘ngida natijani ko‘rish va kuzatish, his etish, xatolarni anglash, qayta yasash, qurish, qirqish, tuzish kabi o‘yin faoliyatini o‘z ichiga olgan o‘zlashtirish harakatlari jarayonida ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu maktabtabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish, qo‘lga kiritgan natijalaridan zavqlanish, o‘z-o‘zini baholash va o‘zgalar ishi bilan taqqoslash, o‘z g‘oya va yangiliklarini asoslash, fikrlarini himoya qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

tayyorlov guruhi
tarbiyalanuvchisining
bilim, ko‘nikma, malakasi
shakllanishiga erishish
darjasasi yuqoriligi
kafolotlanadi

mashg‘ulotlar amaliy
faoliyat orqali
mustahkamlanib boradi

fanlarni o‘zlashtirishning
innovatsion-integratsion,
badiiy estetik, motivasion
yondashuvlariga asoslaniladi

bolada ijod qilish, yangilik
yaratish, o‘z faoliyatiga
qiziqish uchun imkoniyat
yaratiladi

bola milliy-madaniy, aqliy-
jismoniy, ekologik-estetik,
iqtisodiy-huquqiy va
ijtimoiy bilimlarga
asoslangan holda
tarbiyalanadi

Maktabgacha ta’lim – tarbiya jarayonida ART pedagogikasi vositasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Globallashuv davridagi texnologik o‘zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun’iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta’lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyal arning asosiy vazifalaridan biri ekanligini inobatga olgan holda ART pedagogikasi vositasidan tayyorlov guruhi bolalariga ta’lim-tarbiya berishda maqsadli va uzlusiz foydalanish bizning kundalik hayotimizdagи innovatsiyalarni ta’lim tizimiga samarali olib kirish uchun imkoniyat yaratib beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ART pedagogikasi vositasidan foydalanish jarayonida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchisida kreativlik, qunt, qiziquvchilik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyat shakllanishi bilan birga unda haqiqiy hayotning qonunlarini ko‘ra olish, tabiatni kuzatish, undan bahra olish, dunyonи o‘z tasavvurida aks ettirish, yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, o‘z harakatlarini baholash, mashg‘ulot davomida o‘zida paydo bo‘lgan savollarga ongli javob topish va uni haqqoniyligiga ishonch hosil qilish kabi XXI asr ko‘nikmalari tarkib topa boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'lim tashkilotlari o'quv tarbiya jarayonida ART pedagogikasi vositaslaridan foydalanish bo'yichajadallik bilan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

1. Tarbiyachilarining pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik darajalarini uzluksiz oshirib borishga doir Davlat dasturiga asoslangan chora-tadbirlar rejasi ishlab childi;
2. Maktebgacha davlat tashkilotlari bilan birga nodavlat xususiy sherikchilikda faoliyat yuritishga mo'ljallangan maktebgacha ta'lim tashkilotlarining soni oshib bormoqda;
3. Maktebgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuni xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar hamda milliy dastur integratsiyasi asosida uzviy va uzluksiz takomillashtirilib borilmoqda;
4. Maktebgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish faoliyatları qayta o'rganilib, ularning kasbiy va shaxsiy kompetentlik darajasi hamda pedagogik mahoratini oshirish borasida aksiologik yondashuvlarga yo'naltirilgan chora – tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan;
5. O'quv jarayoni mazmuniga akmeologik, aksiologik, innovatsion-inttegratsion, motivatsion yondashuvlarni singdirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim jarayonlarini tadbiq etish asosida maktebgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligi, iqtidori, qiziqishi, estetik va badiiy tarbiyasi, bilim olishga intilishi, yangi g'oyalar yaratishi, o'z fikri va harakatlarini to'g'ri baholash kabi XXI asr ko'nikmalarini tarkib toptirishni ta'minlovchi metodikalar takomillashtirilmoqda;
6. Maktebgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarining sifatli ta'lim va tarbiya olishlari, bog'chaga qamrov sonini oshirish, samaradorlikni ta'minlash imkoniyatlarni yaxshilash maqsadida moddiy texnik bazasi, qayta ko'rib chiqilib, bugungi talablar asosida qaytadan rekonstruksiya qilinmoqda.
7. Maktebgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining tajribalarini oshirish, o'z ustida ishlashi va mahoratini rivojlantirish, kichik yoshdagi bolalarga bugunning talablari asosida bilim berish, ular ongida shaxsiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish va amaliy mashg'ulotlar, ijodiy faoliyatli o'yin va mashqlarni bajarish jarayonida ushbu shakllangan kompetensiyalarini rivojlantirib borish mahoratlarini takomillashtirish maqsadida xorijiy malaka oshirishlarga borishlari yo'liga qo'yilgan.
8. Asosiysi bugungi kun bolasini tarbiyalashda, unga zamonaviy bilimlar berishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, bunda ART pedagogikasi va STEAM texnologiyasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni qondirish va ta'lim tarbiya jarayonida maqsadli, faol qo'llash bo'yicha dasturiy ishlar olib borilmoqda.

Maktebgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni har tomonlama etuk, jismoniy va aqlan sog'lom, ma'nан barkamol shaxs sifatida hayotga tayyorlash maqsadi turadi.

Bolaning eng kichik yoshidan boshlab badiiy pedagogika vositasida tarbiyalash, uning ongiga san'at orqali ta'sir etish, maktebgacha ta'lim tashkiloti ta'lim tarbiya jarayonlarida ART texnologiyasidan foydalanish metodikasini olib kirish bu kelajakdagi ta'lim muvaffaqiyatining kafolotidir.

Aslida, ART pedagogikasi va terapiyasi vositasidan foydalanib bola ongiga ta'sir qilish, uning harakatlarini baholash, unga muomala qilish, uni qiziqtirish, e'tiborini tortish, uning ehtiyoji va iste'dodini aniqlash oilada bolalikdan boshlanadigan jarayon ekanligini pedagogika va psixologiya fanlari ilmiy o'rganib chiqqan. Bola yurishni bilmagan paytida ham u bilan bog'liq jarayonlarning o'zaro bir biri bilan bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilgan, to'g'rilangan, qayta o'rganilgan, natijani ta'minlashga qadar olib kelingan. Bu holat har bir bolaning individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish bilan ham ahamiyatli bo'ladi. Chunki bolaning diqqati, e'tibori, tafakkur va tasavvur darajasi, qobiliyati, voqeа va hodisani anglash jarayonlari uning psixologik rivojlanishi bilan bog'liq.

badiiy ijod va amaliy faoliyat jarayonida boladagi bilishga qiziqishning ortishi

bolada diqqat, e'tibor, tasavvur, tafakkur, muloqotchanlik, hissiyotlarni boshqarish kabi ko'nikmalarni tarkib topishi

badiiy pedagogika texnologiyalarini qo'llash jarayonida boladagi estetik did va badiiy obrazli tasavvur qilish xususiyati paydo bo'ladi

O'z-o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'rtoqlari bilan kelishish, murosa qilish, hamkorlida ishslash

o'z faoliyatini intellektual rivojlantirib borishga intilish, ijodkor bo'lish, erishgan muvaffaqiyatidan ilhomlanish

Maktabgacha ta'limga – tarbiya jarayonida ART pedagogikasi vositasidan foydalanishning psixologik imkoniyatlari

Maktabgacha ta'limga ART pedagogikasi texnologiyasidan foydalanish muayyan parametr asosida o'lchanadi. Har bir parametr bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat ART pedagogikasi texnologiyasi asosida ta'limga-tarbiya berishga tayyorlarligini belgilovchi diqqat, xotira, nutq, tasavvur, his etish, idrok etish, ko'rish, qo'l bilan ushlab ko'rish, mustaqil bajarish asosida anglash va mayda motorika kabi psixologik omillarga bog'liq.

Maktabgacha ta'limga ART pedagogikasi texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyachi uchun quyidagi vazifalar ahmiyatli bo'lib hisoblanadi:

1. ART pedagogikasi texnologiyasiga asoslangan ta'limga jarayonining barcha bosqichlari va uning natijalarini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qila olishlari;
2. tarbiyalanuvchilarning ta'limga tarbiya jarayonida ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan, ularning o'zaro hamkorlik qilishlariga imkon beradigan faol ijodiy ta'limga jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalari aniq namoyon bo'lishini ta'minlashlari;
3. badiiy pedagogika vositalaridan foydalanishga oid ta'limga mazmuni, o'qitish metodikasi va texnologiyalariga kiritilgan yangi o'quv elementlarini nazariy-didaktik jihatdan asoslab bera olishlari;
4. mashg'ulotlar davomida olingan natijalarga tayangan holda kelgusidagi pedagogik faoliyatlar, hatti-harakatlarini tuzatib, tayyorlov guruhi bilan ART pedagogikasi vositasidan foydalanishga oid amaliy ijodiy mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirib, yangilarini izlab topishlari talab etiladi.

Ma'lumki, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'limga 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida aks ettirilgan ta'limga va tarbiyaning asosiy tamoyili - shaxsga yo'naltirilgan ta'limga hisoblanadi. Aytib o'tish lozimki, bolalarga ularning individual ritmda rivojlanishlari va individual potensialini hamda qiziqishni oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta'minlash uchun tarbiyachi shaxsi muayyan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi shart.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kasbiy kompetensiyaga ega kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaivy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachilik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Bolaga, uning ta'limga va tarbiyasiga, undagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlanishiga ART pedagogikasi vositasida akmeologik yondashuv barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'yadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaivy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Tarbiyachining axborot texnologiyalaridan foydalana olish, loyihamiyligiga ta'limga tashkil eta olish, bolalar bilan hamkorlik qila olish uning kasbiy mahoratining bir qismi sifatida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, jahon hamjamiyatida ta'lif muhitini rivojlantirishda ART pedagogikasi vositasidan foydalanish bugungi globollashuv jarayonlarida eng yaxshi texnologiya sifatida e'tirof etilib, ta'lif sifatini oshirish hamda zamonaviy talab va ehtiyojlarni qondirishda ushbu texnologiyaning vazifasi maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchisining ilmiylikka asoslangan tabiat va jamiyat, san'at va mahorat, ma'naviy va axloqiy bilimlarini oshirish, ularning tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, shaxsiy intiluvchanliklarini rivojlantirishdan iborat.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Сергеева Наталя Юрьевна. Содержание понятия «Артпедагогика» //Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2008. № 1.
2. Искусство и педагогика: Из культурного наследия России XIX-XX вв.: Хрестоматия / Сост. М. А. Верб. - СПб.: Образование, 1995. 229 с.
3. Jadanova, Lubov Afanasyevna Obucheniye jivopisi na plenere kak protsess razvitiya xudojestvenno-tvorcheskoy individualnosti studentov: Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. Sankt-Peterburg, 2006.
4. Vey Xao. Podgotovka xudojnika-dizaynera v sovremennom Kitaye: Traditsii i innovatsii: Dissertatsiya na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. Sankt-Peterburg, 2009.
5. Тилавова М.М. АРТ педагогика воспитасида болалар ижодкорлигини ривожлантириш. ISSN 2181-1717 (Е) Образование и инновационные исследования (2022 год №5)
6. Mirzayeva, Shavkatovna Dilfuza. "Innovative approaches to Teaching and Upbringing in Pre-School Institutions." *Middle European Scientific Bulletin* 10.1 (2021).
7. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. АРТ-терапия, как средство адаптации детей раннего возраста к доо //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 1209-1215.
8. Мирзаева Д. Ш., Кенжаева З. Б. Значение использования интерактивных методов в развитии дошкольного образования //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 57-59.
9. Мирзаева, Д. Ш., Насимова, Н. К. К., & Ҳакимова, Н. С. (2021). Арт-педагогика для дошкольников. *Scientific progress*, 2(7), 1201-1205.
10. Нигматова, Мавджуда Махмудовна. Мирзаева Дильтуза Шавкатовна. Развитие творчества детей дошкольного возраста с помощью art педагогики. "Вестник науки и образования" 14-3 (2021): 117.
11. Mirzaeva S. D. Art-pedagogical technology in the development of the fine activity of elder preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11. – №. 1.
12. Хасанова Г. К. Дильтуза Шавкатовна Мирзаева. Подвижная творческая игра как один из методов арт-педагогики //Scientific progress. – 2021. – Т. 7.
13. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. Развитие творчества детей дошкольного возраста с помощью art педагогики //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 14-3 (117). – С. 31-34.
14. Мирзаева, Д. Ш. (2020). Методы использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий в начальных классах. *Academy*, (3 (54)), 85-86.
15. Мирзаева, Д. Ш., & Рахматова, Д. Х. К. (2020). Методы развития речи в процессе развития речи у детей. *Academy*, (6 (57)), 93-94.